

JADVALLARNI BIR-BIRIGA BOG'LASH


5-dars. JADVALLARNI BIR-BIRIGA BOG'LASH

Ma'lumotlar bazasida joylashgan bir nechta jadvalni bir-biriga bog'lash ma'lumotlarni umumlashtirishga yordam beradi. Bu esa bazadagi ma'lumotlardan foydalanishni osonlashtiradi.

AMALIY FAOLIYAT


Jadvallarni bir-biriga bog'lash jarayonini "Maktab kutubxonasi" nomli ma'lumotlar bazasi yordamida o'rganamiz:

- 1) Access dasturida "Maktab kutubxonasi" nomli ma'lumotlar bazasini ishga tushiramiz;
- 2) bazadagi 4 ta jadvalni yopish lozim. Buning uchun kursorni ishchi maydondagi jadval nomi ustiga olib kelib, sichqonchani o'ng tugmachasi bosiladi **(1)**;




- 3) kontekst menyu paydo bo'ladi. U yerda "Закреть все" buyrug'i tanlanadi **(2)**. Bu bilan ishchi maydondagi barcha jadvallarni vaqtincha yopish mumkin;


- 4) so'ngra "Работа с базами данных" panelidan **(3)** "Схема данных" uskunasi **(4)** tanlaymiz. Uskuna jadvallarni bir-biriga bog'lashga yordam beradi;



JADVALLARNI BIR-BIRIGA BOG'LASH



5) dastur oynasida yangi “Конструктор” paneli (5) va “Добавление таблицы” (6) kontekst menyusi paydo bo’ladi;




6) “Добавление таблицы” (6) kontekst menyusidan “Kitoblar”, “Kutubxona a’zolari”, “Kutubxona xodimlari” va “Qaydnoma” jadvallari tanlanadi (7) va “Добавить” tugmachasi (8) bosiladi;

7) ishchi oynada 4 ta jadval paydo bo’ladi (9);

JADVALLARNI BIR-BIRIGA BOG'LASH


6) “Добавление таблицы” (6) kontekst menyusidan “Kitoblar”, “Kutubxona a'zolari”, “Kutubxona xodimlari” va “Qaydnoma” jadvallari tanlanadi (7) va “Добавить” tugmachasi (8) bosiladi;

7) ishchi oynada 4 ta jadval paydo bo'ladi (9);



8) jadvallar “Qaydnoma” nomli jadval atrofiga joylashtiriladi. Buning uchun kursor “Kitoblar” nomi ustiga olib boriladi (10) va sichqonchani chap tugmachasi bosilgan holda u “Qaydnoma” jadvali (11) yaqiniga olib kelinadi;

9) qolgan jadvallar ham “Qaydnoma” jadvali atrofiga to'planadi;



JADVALLARNI BIR-BIRIGA BOG'LASH

10) kursorni "Kutubxona a'zolari" jadvalidagi "id" maydoni **(12)** nomi ustiga olib kelib, sichqonchanning chap tugmachasi bosiladi. Sichqoncha tugmachasini qo'yib yubormagan holda kursor "Qaydnoma" jadvalidagi "id" maydon **(13)** ustiga olib boriladi va sichqonchanning tugmachasi qo'yib yuboriladi;

11) "Изменение связей" oynasi **(14)** paydo bo'ladi. Oynada "Kutubxona a'zolari" jadvalidagi **(15)** "id" maydon **(16)** "Qaydnoma" jadvalidagi **(17)** "id" maydon **(18)** bilan bog'lanayotganligi ko'rsatiladi;

12) oynaning pastki qismidagi "Обеспечение целостности данных", "Каскадное обновление связанных полей", "Каскадное удаление связанных записей" bandlariga **(19)** tasdiqlash belgisi o'rnatiladi. Ularni tasdiqlash orqali ma'lumotlar yaxlitligi ta'minlanadi hamda ularni tahrirlashda yuz berishi mumkin bo'lgan xatoliklarning oldi olinadi.

13) "Создать" tugmachasi bosiladi **(20)**;

Изменение связей **(14)**

Таблица/запрос: **(15)** Kutubxona a'zolari **(16)** id

Связанная таблица/запрос: **(17)** Qaydnoma **(18)** id

☒ Обеспечение целостности данных

☒ каскадное обновление связанных полей

☒ каскадное удаление связанных записей **(19)**

Тип отношения: один-ко-многим


(20) Создать

Отмена

Объединение...

Новое..


14) natijada, "Kutubxona a'zolari" va "Qaydnoma" jadvallari bir-biriga bog'lanadi **(21)**;



JADVALLARNI BIR-BIRIGA BOG'LASH

15) shu tartibda “Kitoblar” jadvalidagi “kitob_id” maydoni “Qaydnoma” jadvalidagi “kitob_id” maydoniga bog’lanadi **(22)**;

16) “Kutubxona xodimlari” jadvalidagi “xodim_id” maydoni “Qaydnoma” jadvalidagi “xodim_id” maydoniga bog’lanadi **(23)**;




17) barcha jadvallar bir-biriga bog’langanidan keyin **(24)** jadvallarga kirib, ulardagi o’zgarishlarni ko’rish mumkin.

Jadvallar asosiy kalit (Primary Key) orqali bir-biriga bog’landi. Bu bilan belgilangan maydonlar o’rtasida ma’lumotlar yaxlitligi va xavfsizligi ta’minlanadi.

JADVALLARNI BIR-BIRIGA BOG'LASH NATIJASI


1. Jadvallar bir-biriga bog’lanishi natijasida “Kitoblar”, “Kutubxona a’zolari” va “Kutubxona xodimlari” jadvallarida plyus (+) belgisi tushirilgan yangi maydon paydo bo’ldi **(1)**.

JADVALLARNI BIR-BIRIGA BOG'LASH



id	ism	familiya	otasini_ismi	sinf	tavvalud_sanasi	jinsi	manzili
1	Alisher	Hamidov	Abdulla o'g'li	2-a	06.05.2013	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 12/12
2	Bahrom	Aliyev	Sardor o'g'li	6-b	06.07.2009	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 23/5
3	Gulnoza	Temirova	Mirzabek qizi	5-a	23.08.2010	Ayol	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 21/16
4	Xasan	Samidov	Feruz o'g'li	3-b	30.12.2012	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 21/17
5	Xusan	Samidov	Feruz o'g'li	3-b	30.12.2012	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 21/8
6	Surayyo	Erkinova	Jobirjon qizi	10-a	04.10.2005	Ayol	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 20/10
7	Gulmira	Fozilova	Alisher qiz	7-a	27.09.2008	Ayol	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 22/18
8	Jamila	Rizayeva	Sobir qizi	9-b	24.06.2006	Ayol	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 28/16
9	Nodira	Usmonova	Davron qizi	11-b	03.05.2004	Ayol	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 11/2
10	Usmon	Mirzayev	Olimjon o'g'li	11-a	07.11.2004	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 7/1
11	Malik	Sulaymonov	Muhammad o'g'li	9-a	31.12.2006	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 3/19
12	Xasan	Shokirov	Xusanjon o'g'li	7-a	31.12.2008	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 3/19
13	Zahro	Alimov	Hoshimjon qizi	8-b	31.12.2007	Ayol	

2. PLYUS (+) belgisi ustiga bir marta bosish orqali kutubxona a'zosi qaydnomasini ko'rish mumkin (2).



id	ism	familiya	otasini_ismi	sinf	tavvalud_sanasi	jinsi	manzili
1	Alisher	Hamidov	Abdulla o'g'li	2-a	06.05.2013	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 12/12
2	Bahrom	Aliyev	Sardor o'g'li	6-b	06.07.2009	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 23/5
3	Gulnoza	Temirova	Mirzabek qizi	5-a	23.08.2010	Ayol	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 21/16
4	Xasan	Samidov	Feruz o'g'li	3-b	30.12.2012	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 21/17
5	Xusan	Samidov	Feruz o'g'li	3-b	30.12.2012	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 21/8
6	Surayyo	Erkinova	Jobirjon qizi	10-a	04.10.2005	Ayol	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 20/10
7	Gulmira	Fozilova	Alisher qiz	7-a	27.09.2008	Ayol	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 22/18
8	Jamila	Rizayeva	Sobir qizi	9-b	24.06.2006	Ayol	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 28/16
9	Nodira	Usmonova	Davron qizi	11-b	03.05.2004	Ayol	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 11/2
10	Usmon	Mirzayev	Olimjon o'g'li	11-a	07.11.2004	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 7/1
11	Malik	Sulaymonov	Muhammad o'g'li	9-a	31.12.2006	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 3/19
12	Xasan	Shokirov	Xusanjon o'g'li	7-a	31.12.2008	Erkak	Toshkent sh, Olmazor t. Naychi MFY. 3/19
13	Zahro	Alimov	Hoshimjon qizi	8-b	31.12.2007	Ayol	

3. Bu ma'lumot ID raqami 1 bo'lgan Alisher Hamidovning kutubxonadan qachon, qanday kitob olganligi haqidagi qaydlar hisoblanadi (2).

4. Qolgan kutubxona a'zolarining qachon, qanday kitoblardan foydalanganligini (+) belgisi ustiga bosish orqali bilib olish mumkin (3).

Shu tartibda qolgan jadvallarda ham har bir yozuv uchun paydo bo'lgan qo'shimcha jadvallarni ko'rish mumkin.

MA'LUMOTLAR BAZASIDA FORMA YARATISH



TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Jadvallarni bir-biriga bog'lash foydalanuvchilarga qanday qulaylik yaratadi?
2. Jadvallarni bir-biriga bog'lash jarayonida ma'lumotlar yaxlitligini qanday opsiya taminlaydi?
3. Jadvallarning bir-biriga bog'lanishi jadvallarning tuzilishida qanday o'zgarishlarga sababchi bo'ladi?
4. Maktabingizdagi kutubxona xodimlari bilan erishgan natijangizni muhokama qiling.

UYGA VAZIFA

1. Jadvallarni bir-biriga bog'lash ketma-ketligini mantiqiy sxema ko'rinishida daftaringizga yozing.
2. Internetdan supermarketda ma'lumotlar bazasidan qanday foydalanilishi haqida ma'lumot to'plang va uning grafik ko'rinishini daftaringizga yozing.
3. Maktab kutubxonasi bazasini yaxshilash yo'llarini o'ylab ko'ring va mulohazalaringizni do'stlaringiz bilan muhokama qiling.